

**SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANUVCHI
IS'TEMOLCHILAR HUQUQLARINING XAVF OSTIDA QOLISH
HOLATLARI VA HUQUQIY MUAMMOLAR**

Rahmatova Dilorom

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Email: raxmatovadilorom88@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari asosida faoliyat yurituvchi xizmatlardan foydalanuvchi iste'molchilarning huquqlarining xavf ostida qolish holatlari va ularni huquqiy jihatdan himoya qilish muammolari tahlil qilinadi. SI tizimlari orqali amalga oshirilayotgan shaxsiy ma'lumotlar to'planishi, algoritmik diskriminatsiya, shaffoflik yetishmovchiligi kabi holatlar iste'molchilarning konstitutsiyaviy huquqlariga tahdid solayotganiga urg'u beriladi. Muallif mavjud milliy va xalqaro huquqiy normalarni tahlil qiladi hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan amaliy takliflar ilgari suradi. Xususan, SI xizmatlari uchun maxsus tartiblar joriy etish, rozilik mexanizmlarini isloh qilish, algoritmik audit va inson aralashuvini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, iste'molchilar huquqlari, algoritmik adolatsizlik, shaxsiy ma'lumotlar, qonunchilik, raqamli xavfsizlik, ongli rozilik, maxfiylik siyosati, huquqiy himoya.

**СЛУЧАИ УГРОЗЫ ПРАВАМ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ С
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И
ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ**

Рахматова Дилором

Магистратура Ташкентского государственного юридического университета

Email: rahmatovadilorom88@gmail.com

Аннотация: в данной статье анализируются случаи угрозы правам потребителей, использующих услуги на основе технологий искусственного

интеллекта (ИИ), и проблемы их правовой защиты. Подчеркивается, что такие ситуации, как сбор персональных данных посредством систем ИИ, алгоритмическая дискриминация, отсутствие прозрачности, угрожают конституционным правам потребителей. Автор анализирует существующие национальные и международные правовые нормы и выдвигает практические предложения по совершенствованию законодательства Республики Узбекистан. В частности, даются рекомендации по внедрению специальных процедур для услуг СИ, реформированию механизмов согласия, алгоритмическому аудиту и обеспечению человеческого вмешательства.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, права потребителей, алгоритмическая несправедливость, персональные данные, законодательство, цифровая безопасность, осознанное согласие, политика конфиденциальности, правовая защита.*

CASES OF THREAT TO THE RIGHTS OF CONSUMERS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND LEGAL ISSUES

Rakhmatova Dilorom

Master's student, Tashkent State University of Law

Email: rahmatovadilorom88@gmail.com

Abstract: *this article analyzes the cases of threat to the rights of consumers using services based on artificial intelligence (AI) technologies and the problems of their legal protection. It is emphasized that situations such as the collection of personal data through AI systems, algorithmic discrimination, and lack of transparency threaten the constitutional rights of consumers. The author analyzes existing national and international legal norms and puts forward practical proposals for improving the legislation of the Republic of Uzbekistan. In particular, recommendations are made on the introduction of special procedures*

for SI services, reform of consent mechanisms, algorithmic audit and ensuring human intervention.

Keywords: *artificial intelligence, consumer rights, algorithmic injustice, personal data, legislation, digital security, informed consent, privacy policy, legal protection.*

Kirish

So‘nggi yillarda sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi global miqyosda inson faoliyatining turli jabhalariga jadal kirib kelmoqda. Bu texnologiyalar tibbiyot, transport, moliya, ta‘lim, elektron tijorat va kundalik hayotda keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, iste‘molchilarga xizmat ko‘rsatishda sun‘iy intellekt tizimlarining qo‘llanishi iste‘molchilarga qulaylik va samaradorlikni taqdim etmoqda. Biroq bu jarayonlar bilan birga yangi huquqiy, axloqiy va ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Iste‘molchi, odatda, sun‘iy intellekt tizimi orqali ko‘rsatilayotgan xizmatning tabiati, u qanday ishlayotgani va qanday ma‘lumotlarga asoslangan holda qaror chiqarayotganini chuqur anglay olmaydi. Bu esa uning qaror qabul qilish erkinligini, shaxsiy hayot daxlsizligini, shaffoflik va adolatga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarini cheklashi mumkin. Ayniqsa, sun‘iy intellekt tizimlarining algoritmik diskriminatsiya, noto‘g‘ri qaror qabul qilish, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qila olmaslik, va mas‘uliyatni aniqlashdagi noaniqliklar kabi salbiy jihatlari iste‘molchilar huquqlarining yangi xavflar ostida qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Mazkur ilmiy maqolada sun‘iy intellektidan foydalanuvchi iste‘molchilarning huquqlarining xavf ostida qolish holatlari, bu holatlarning huquqiy sabablari, mavjud tartibga solishdagi bo‘shliqlar va yechim takliflari

chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – sun’iy intellekt asosida taqdim etilayotgan xizmatlar bilan bog‘liq huquqiy xavflarni aniqlash va O‘zbekiston huquqiy tizimi uchun mos takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Metodologiya

1. Huquqiy-tahliliy usul

Bu usul orqali O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuni hamda boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ayniqsa, mavjud qonunchilikda sun’iy intellektidan foydalanuvchi xizmatlarning tartibga solinishi bo‘yicha mavjud bo‘shliqlar, noaniqliklar va iste’molchi huquqlari bilan bog‘liq ziddiyatli holatlar o‘rganildi.

2. Taqqoslama-huquqiy tahlil usuli

Sun’iy intellektning iste’molchilarga ta’siri va ularning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro tajriba o‘rganildi. Xususan:

- Yevropa Ittifoqining AI Act (2024)
- General Data Protection Regulation (GDPR);
- AQShning Federal Trade Commission (FTC) ko‘rsatmalari;
- Kanada, Yaponiya va Janubiy Koreyaning raqamli huquqiy siyosatlari

solishtirildi.

Mazkur hujjatlar orqali turli yurisdiksiyalardagi huquqiy mexanizmlarning samaradorligi va ularning O‘zbekiston huquqiy tizimiga moslashuvchanligi tahlil qilindi.

3. Amaliy-huquqiy misollar va kazuslar tahlili

Tadqiqotda sun’iy intellekt xizmatlari bilan bog‘liq amaliy holatlar – ya’ni real sud qarorlari, xalqaro va mahalliy ommaviy axborot vositalarida yoritilgan

nizolar, shikoyatlar va tahdidli vaziyatlar asosida kazuslar o'rganildi. Bu orqali nazariy huquqiy me'yorlarning amaliyotda qanday ishlayotgani (yoki ishlamayotgani) aniqlashtirildi.

4. Normativ-huquqiy bo'shliqlarni aniqlash va taklif ishlab chiqish yondashuvi

Tahlil qilingan huquqiy hujjatlar va amaliy holatlardan kelib chiqib, O'zbekiston qonunchiligida mavjud bo'lgan tartibga solish bo'shliqlari aniqlandi. Ular asosida normativ-huquqiy takliflar ishlab chiqildi, ya'ni yangi tushunchalar, mas'uliyat tamoyillari, iste'molchi roziligi, algoritmik shaffoflik va SI xavf toifalariga oid qo'shimchalar taklif qilindi.

5. Ilmiy-adabiyotlar va ekspert xulosalari tahlili

Tadqiqot davomida sun'iy intellekt, raqamli iste'mol huquqi, algoritmik adolat, raqamli etik va ma'lumotlar xavfsizligi masalalariga oid ilmiy maqolalar, konferensiya materiallari va xalqaro ekspertlar tavsiyalari o'rganildi. Bu ilmiy yondashuv tadqiqotning chuqurligi va asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

Natija

Sun'iy intellekt (SI; inglizcha: artificial intelligence, AI) – inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo'lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasi. Bugungi kunda keng qo'llanilib kelinayotgan sun'iy intellekt texnologiyalariga aqlli veb-qidiruv tizimlari (masalan, YouTube Search), tavsiya tizimlari (YouTube, Amazon va Netflix), tabiiy tilni tushunish (Google Assistant, Siri va Alexa), o'zini-o'zi boshqaradigan avtomobillar (masalan, Waymo) va boshqalarni misol qilish mumkin¹

¹ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sun%CA%BCiy_intellekt.

Sun'iy intellektga turli xil buyruqlar berish natijasida inson xatti-harakatiga taqlid qilishga qodir bo'lgan tizim yoki texnologiya bo'lib, olingan ma'lumotlardan foydalanib asta-sekin mukammallashib boradi. Bundan tashqari iste'molchilar buyruq berishi orqali uning qiziqishlarini bilib olib shaxsiy ma'lumotlari haqida ham xabardor bo'lmoqda. Umuman olganda sun'iy intellekt format ham, funktsiya ham emas, balki bu jarayon bo'lib, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish kabilarni o'z ichiga oladi.

Sun'iy intellekt haqida so'z borar ekan, uning biznesdagi va axborot texnologiyalardagi o'rnini tahlil qilish lozim. Sun'iy intellektning ushbu yo'nalishlarga sekin-astalik bilan kirib borishi, sun'iy intellekt vositalarining soni oshishini ta'minlaydi.

“Sun'iy intellekt” deganda ko'pchilik robotlarning turli sohalarga jalb qilinishini tushunadi. Ammo sun'iy intellekt atamasi robotlarning inson bilan o'rin almashishini anglatmaydi. Uning asosiy maqsadi inson qobiliyatlari va imkoniyatlarining chegaralarini kengaytirishdir. Shuning uchun bu kabi texnologiyalar qimmatli biznes resursi hisoblanadi.

Avvallari “sun'iy intellekt” atamasi faqat odamlar bajarishi mumkin bo'lgan, masalan, mijozlarga xizmat ko'rsatish yoki shaxmat o'ynash vazifalarni bajarish uchun qo'llanilgan. Shuningdek, kompyuter texnologiyalarini chuqur o'rganishga ham sun'iy intellekt sifatida qaralgan. Lekin mijozlarga xizmat ko'rsatish, turli onlayn o'yinlar va komp'yuter texnologiyalarini chuqur o'rganish kabilarni sun'iy intellekt texnologiyalarining kichik qismi hisoblanadi. To'g'ri, sun'iy intellekt texnologiyalari odamlar bajaradigan vazifalarni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Biroq endilikda uning qamrovi kengaymoqda, hozirda sun'iy intellekt bilan odamlarning xarakterini,

o'quvchilarning qobiliyatlarini, xodimning ishga bo'lgan qarashlarini aniqlab olish mumkin.²

Sun'iy intellektdan foydalanuvchi iste'molchilarning huquqlari turli shakllarda xavf ostida qolayotgan quyidagi asosiy holatlar aniqlangan:

1. Shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligining buzilishi

Sun'iy intellekt tizimlari ko'plab foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish, saqlash va tahlil qilish asosida ishlaydi. Bu ma'lumotlar qatoriga foydalanuvchining yoshi, jinsi, joylashuvi, xarid odatlari, internetdagi faoliyati va hatto yuz ifodalarigacha kirishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunida ma'lumotlar subyekting roziligi asosiy tamoyil sifatida belgilangan bo'lsa-da, ko'plab sun'iy intellekt platformalar foydalanuvchidan real va ongli rozilik olmaydi yoki uni noto'g'ri ma'lumot asosida oladi.

Misol: Mobil ilovalar orqali yuzni aniqlovchi funksiyalar (masalan, AR filtrlar) foydalanuvchining biometrik ma'lumotlarini saqlab qoladi, biroq ularning qanday maqsadda ishlatilishi aniq ko'rsatilmagan bo'ladi.

2. Algoritmik diskriminatsiya va adolatsizlik

Algoritmlar odatda mashina o'rganish orqali o'tmishdagi ma'lumotlar asosida qaror qabul qiladi. Agar bu ma'lumotlar o'zida tarixiy yoki ijtimoiy diskriminatsiyani mujassam etgan bo'lsa, SI tizimi ham noto'g'ri yoki adolatsiz natijalar chiqaradi. Bu holat, ayniqsa, kredit reytingi, ishga qabul qilish, tibbiy xizmatlar yoki onlayn narxlash tizimlarida sezilarli bo'ladi.

² <https://yuz.uz/uz/news/suniy-intellekt--texnologik-rivojlanish-asosi>.

Misol: AQShda ayrim kredit berish tizimlari qora tanli aholiga nisbatan yuqoriroq foiz stavkalarini avtomatik tarzda taklif qilgani aniqlangan, bu esa SI'ning irqiy diskriminatsiyani takrorlaganini ko'rsatadi.

3. Shaffoflik va tushunarliklikning yo'qligi

Sun'iy intellekt tizimlari qaror qabul qilishda juda murakkab algoritmik modellardan foydalanadi, ularning ishlash mexanizmini oddiy foydalanuvchi emas, ba'zida mutaxassis ham tushunib yetolmaydi. Natijada, iste'molchi nima sababdan unga muayyan xizmat rad etilgani yoki qanday ma'lumotlar asosida unga mahsulot tavsiya etilganini aniqlay olmaydi.

Huquqiy muammo: "Sharhlanadigan qaror" huquqi, ya'ni iste'molchi qarorning qanday chiqarilganini tushunishga haqli bo'lishi, O'zbekiston qonunchiligida ko'zda tutilmagan. Yevropa Ittifoqining GDPR reglamenti esa bunday huquqni ta'minlaydi.

4. Mas'uliyatni aniqlashdagi huquqiy noaniqlik

Agar SI xizmatidan foydalanish natijasida iste'molchiga zarar yetkazilsa, bu zarar uchun kim javobgar ekanligini aniqlash qiyin bo'ladi. Huquqiy tizimlarda odatda inson subyektlari javobgarligi belgilangan, SI esa huquqiy shaxs emas, balki vosita hisoblanadi.

Misol: Agar avtonom SI dasturi noto'g'ri tibbiy maslahat berib, salbiy natijaga olib kelsa – ishlab chiquvchi, xizmat ko'rsatuvchi kompaniya yoki foydalanuvchi javobgarmi?

5. Rozilik olishda manipulyatsiya (dark patterns)

Ko'plab SI xizmatlari foydalanuvchidan ma'lumotlar to'plash uchun rozilik olishda manipulyativ dizayn (dark patterns) dan foydalanadi – ya'ni foydalanuvchi rad etish tugmasini topolmaydi, rozilik avtomatik tarzda belgilanadi

yoki rad qilish murakkablashtiriladi. Bu esa “ongli va ixtiyoriy rozilik” talabiga zid keladi.

Misol: Veb-sahifada "Roziman" tugmasi katta va koʻzga koʻrinadigan boʻlsa, "Rad etaman" opsiyasi kichik va yashiringan boʻladi. Bu orqali foydalanuvchi majburan rozilik bildiradi.

6. Notoʻgʻri va yolgʻon maʼlumot asosida qaror qabul qilish

SI tizimlarining tahlillari baʼzan notoʻgʻri yoki soxta axborot asosida shakllanadi. Ayniqsa, generativ sunʼiy intellekt (ChatGPT, DALL·E, Midjourney va boshqalar) tomonidan yaratilgan kontent real faktlarga mos kelmasligi mumkin. Isteʼmolchi bunday axborotga asoslanib qaror qabul qilsa, bu zararli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Misol: Sunʼiy intellekt orqali yaratilgan tibbiy maslahat notoʻgʻri boʻlib, isteʼmolchining sogʻligʻiga zarar yetkazishi mumkin.

7. Iqtisodiy ekspluatatsiya va algoritmik narxlash E-tijorat platformalarida SI asosida dinamik narxlash tizimlari qoʻllaniladi. Foydalanuvchining xarid odatlari, daromad darajasi va joylashuviga qarab narxlar sunʼiy ravishda oshiriladi. Bu holat iqtisodiy adolatsizlikka olib keladi.

Misol: Bir foydalanuvchi biror mahsulotni bir necha bor qidirsas, SI tizimi uning qiziqishini aniqlab, mahsulot narxini oshiradi.

Isteʼmolchilarning huquqlari qonun jihatdan himoya qilinadi va bundan tashqari isteʼmolchilar himoya choralarini koʻrishi kerak. Jumladan, “Shaxsiy maʼlumotlar toʻgʻrisida”gi Qonunga “ongli va ixtiyoriy rozilik” tushunchasini aniq kiritish. Sunʼiy intellekt xizmatlari uchun alohida maxfiylik siyosati ishlab chiqish va ularni tushunarli shaklda foydalanuvchiga taqdim etish. Har bir SI xizmatining data auditi va xavfsizlik sertifikatlariga ega boʻlishini majburiy qilish. Algoritmik

qarorlar uchun “noyob tekshiruv (audit)” tizimini joriy etish. “Diskriminatsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonunchilikka SI asosidagi algoritmik adolatsizlikni alohida holat sifatida kiritish. Algoritmilarida foydalaniladigan ma’lumotlar to‘plamini xolis va inklyuziv qilishni talab qiluvchi texnik standartlarni joriy etish. “Izohlanadigan sun’iy intellekt” tamoyilini qonunchilikda mustahkamlash. Har bir SI tizimi foydalanuvchiga qarorning asoslari haqida qisqa tushuntirish berishini ta’minlash. Iste’molchiga “qarorni shikoyat qilish” va inson aralashuvini talab qilish huquqini kafolatlash. Sun’iy intellekt asosidagi xizmatlar uchun “xavf toifalari” bo’yicha mas’uliyatni tabaqalash. SI xizmat ko’rsatuvchi tashkilotni (kompaniyani) bevosita javobgar subyekt sifatida belgilash. Qonunchilikka “algoritmik mahsulotlar uchun kafolat” va zararni qoplash mexanizmlari kiritish. “Dark pattern”larni aldovning bir turi sifatida tan olish va ularni taqiqlovchi norma kiritish. Veb-sayt va ilovalarda rozilik va rad etish tugmalari teng ko’rinishda bo’lishini qonun bilan belgilash. Tashqi nazorat organi (masalan, Axborot xavfsizligi agentligi) tomonidan rozilik shakllari bo’yicha monitoring tizimini joriy etish. Generativ SI xizmatlariga fakt tekshirish tizimini integratsiya qilish. SI orqali taqdim etilgan tavsiyalar uchun “ogohlantiruvchi belgi” (masalan, “bu maslahat tibbiy xulosa emas”) joriy etish. Noto‘g‘ri axborot yetkazgan SI platformalariga nisbatan javobgarlik va jarima choralarini ko’zda tutish. Dinamik narxlash tizimlarini tartibga soluvchi alohida huquqiy norma joriy qilish. E-tijorat platformalarida narx belgilanish algoritmining shaffofligini ta’minlash. Foydalanuvchining algoritmik tahlilga asoslangan narxni rad etish huquqini qonun bilan kafolatlash.

Munozara

Mazkur natijalar O‘zbekiston qonunchiligida SI asosida faoliyat yurituvchi xizmatlar va mahsulotlarga nisbatan iste’molchilar huquqlarining maxsus tartibda himoyalaniishi zarurligini ko‘rsatadi. Hozirgi amaliyotda sun’iy intellektga oid maxsus huquqiy me’yorlar yetarli emas. Masalan, "Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida"gi Qonunda SI tushunchasi yoki unga xos xavf-xatarlarga oid bandlar mavjud emas. Bu holat amaliyotda nizolarni hal qilishda murakkabliklar tug‘diradi. Yevropa Ittifoqi tomonidan 2024-yilda qabul qilingan SI Aktida (AI Act) esa iste’molchilarni himoya qilish alohida e’tiborda turadi. Unda yuqori xavfli SI tizimlari ro‘yxati, shaffoflik talablari va nazorat mexanizmlari ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston ham SI sohasini tartibga solishda mazkur hujjatdan o‘rnak olishi lozim. Bundan tashqari, iste’molchilarning raqamli savodxonligini oshirish, SI xizmatlaridan foydalanishda xabardorlikni ta’minlash, SI’ga asoslangan xizmat ko‘rsatuvchilarga esa aniq majburiyatlar yuklash orqali xavflarni kamaytirish mumkin.

Takliflar

1. Qonunchilik bazasini takomillashtirish:

O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga sun’iy intellekt asosidagi xizmatlarga oid alohida bob yoki modda kiritilishi lozim.³

“Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunga ongli rozilik, ma’lumotlar minimalligi, maqsadga muvofiqlik prinsiplari kiritilishi zarur.

Algoritmik qarorlar uchun inson tomonidan nazorat qilish huquqi va shaffoflik majburiyati huquqiy jihatdan mustahkamlansin.⁴

2. Sun’iy intellekt xavf toifalarini aniqlash va tartibga solish:

³ “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri), 2022-yil.

⁴ “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil. <https://lex.uz/docs/4409753>.

Xizmatlar xavf darajasiga ko‘ra yuqori, o‘rta va past xavfli SI tizimlari deb tasniflanishi va har biri uchun mos tartibda javobgarlik va audit mexanizmlari belgilanishi lozim.

Yuqori xavfli SI tizimlari (masalan, moliyaviy baholash, tibbiy diagnostika, kredit reytingi) uchun majburiy audit va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi joriy etilishi zarur.

3. Mustaqil nazorat va monitoring mexanizmlarini yaratish:

Sun‘iy intellekt xizmatlarini nazorat qiluvchi mustaqil davlat organi – masalan, “Raqamli adolat va SI xavfsizligi agentligi” tashkil etilishi mumkin.

Bu organ iste‘molchilarning shikoyatlarini ko‘rib chiqish, SI tizimlarini baholash, audit natijalarini e‘lon qilish va qonunbuzarliklarga nisbatan choralar ko‘rish vakolatiga ega bo‘lishi lozim.

4. Iste‘molchilarni xabardor qilish va savodxonlikni oshirish:

Har bir SI xizmat ko‘rsatuvchiga foydalanuvchini xabardor qilish – ya‘ni “bu xizmat SI asosida ishlaydi” degan ogohlantirishni berish majburiyati yuklansin.

Maktab, OTM va ommaviy axborot vositalari orqali raqamli huquqiy savodxonlik dasturlari joriy qilinsin.

Davlat tomonidan iste‘molchilarga mo‘ljallangan onlayn platforma (portal) orqali SI asosidagi xizmatlar va ularning xavfliligi darajasi to‘g‘risida axborot taqdim etilishi maqsadga muvofiq.

5. Sun‘iy intellekt xizmatlari ishlab chiquvchilari uchun majburiyatlar:

Algoritmik modellar ochiqqligi, auditga tayyorligi va soxta ma‘lumotlar tarqatmaslik majburiyatlari qonun bilan belgilanadi. Mahsulot ishlab chiquvchilari

iste'molchiga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlar uchun majburiy sug'urta yoki kompensatsiya fondi tashkil etishlari lozim.

Xulosa

Sun'iy intellektning kundalik hayotga jadal kirib kelishi iste'molchilar uchun bir qator qulayliklar yaratgani holda, ularning huquqiy holatida yangi xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, SI tizimlari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar nafaqat shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini buzish, balki algoritmik diskriminatsiya, shaffoflik yetishmovchiligi, noto'g'ri qarorlar, mas'uliyatni aniqlashdagi muammolar, iqtisodiy ekspluatatsiya va manipulyativ rozilik amaliyotlari orqali iste'molchilar huquqlarini buzmoqda. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bu yangi xavf-xatarlarni to'liq qamrab ololmayapti, bu esa milliy huquqiy bazani zamonaviylashtirishni taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sun%CA%BCiy_intellekt.
2. <https://yuz.uz/uz/news/suniy-intellekt--texnologik-rivojlanish-asosi>.
3. "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri), 2022-yil.
4. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil, <https://lex.uz/docs/4409753>.